

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DANGALOV SUNNATILLA MUSTAFAYEVICH

**KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI SAVODGA
O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Dangalov Sunnatilla Mustafayevich

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni savodga o‘rgatish metodikasini
takomillashtirish 3

Дангалов Суннатилла Мустафаевич

Совершенствование методики обучения грамоте детей с нарушениями
зрения 21

Dangalov Sunnatilla Mustafayevich

Improving the Methodology of Literacy Instruction for Blind Children.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DANGALOV SUNNATILLA MUSTAFAYEVICH

**KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI SAVODGA
O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PHD/Ped5293 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspi.uz/uz ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Fayziyeva Ubayda Yunusovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar: Xakimova Muhabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Musayeva Nargiza Sayfullayevna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "7" 03 soat 1400 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104- uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (457- raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712- 45-41.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "24" 04 kuni tarqatildi.

(2026-yil "24" 04 dagi 13 - raqamli reyestr bayonnomasi).



F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc),
professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc),
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarda o'qish motivatsiyasi, kommunikativ va axborotli ko'nikmalarni rivojlantirish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik strategiyalar va innovatsion metodikalar keng qo'llanilmoqda. Natijada bu toifa o'quvchilarning akademik va ijtimoiy ehtiyojlariga mos, diagnostik yondashuvlarga asoslangan lingvodidaktik ta'limni individual modellashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. YUNESKOning "Bir umrlik ta'lim" va "Ta'lim hamma uchun" dasturlari doirasida alohida ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga erta jalb etish, ularning imkoniyatlariga mos korreksion-kompensatsion o'quv muhitini yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda o'quvchilarni ona tilida savodga o'rgatish, fanlarni integrativ o'qitish hamda tarbiyaviy va korreksion mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalar va adaptiv resurslar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo ta'lim tizimi, ilmiy tadqiqot markazlarida ta'limda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning o'quv motivatsiyasi, kommunikativ ko'nikmalari hamda ona tilida fikr almashish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini intensiv rivojlantirish, savodga o'rgatish metodikasini korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvlar asosida modifikatsiyalash, ko'rishida muammolari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga erta jalb etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ko'rishida muammolari bo'lgan bolalarning savodi ustida ishlashda tiflotexnik-bo'rtma vositalarning lingvodidaktik shakllaridan foydalanish metodikasini individual yondashuvlarga asoslangan interaktiv elementlar kiritish orqali modernizatsiyalashga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda o'quvchilarning fonetik-fonematik idroki, grifil bilan ishlash, yozishda to'g'ri mo'ljall olish, so'z tarkibini analiz va sintez qilish kabi ko'nikmalari ustida ishlash va bu jarayonda o'qituvchi, tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda maxsus, inklyuziv ta'limni tashkil etish va amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni adaptiv joriy etish, ta'lim subyektlari o'rtasida maqsadli hamkorlikni kuchaytirish, ta'limiy-ijtimoiy maqsadlarni integratsiyalashning me'yoriy asoslari yaratildi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish"¹ kabi ustuvor vazifalar maxsus pedagoglarning metodik kompetensiyasini innovatsion muhitda rivojlantirish, individual ta'lim tamoyillari asosida o'quv-korreksion jarayonni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa, ko'zi ojiz bolalarga savod o'rgatish tizimini innovatsion-didaktik, tiflologik tamoyillar va o'qitish vositalari asosida takomillashtirish modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni, 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2021-yildagi PQ-57-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 18-apreldagi PQ-209-son “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning uzluksiz ta’limini tashkil etish va bu jarayonda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga oid tadqiqotlar G.Abdullaeva, X.Akramova, M.Ayupova, Z.Ahmedova, N.Abidova, S.Achilova, L.Muminova, N.Raxmonkulova, N.Egamberdieva, N.Dadaxodjayeva, Sh.Tahtayorova, Sh.Shakirova, N.Musayeva, D.Nurkeldiyeva, L.Nurmuxamedova, V.Rahmanova, X.Raximova, M.Xakimova, R.Shomaxmudova, G‘.Shoumarov, U.Fayziyeva, D.Nazarova, D.Yakubjanova, F.Qodirovalar tomonidan olib borilgan. Ko‘rishida muammolari bo‘lgan bolalar ta’limi va ijtimoiylashuv masalalari M.Qurbonova, M.Nazarova, N.Abidova, Z.Xusnuddinova, A.Holiqov, D.Musayev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tahlil etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari V.Akimushkin, A.Litvak, L.Mardaxayev, I.Morgulis, I.Pavlov, I.Sechenov, L.Solnseva, L.Vigotskiy, S.Xorosh, E.Shlaylar tomonidan ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi va ular bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning tashkiliy-metodik va pedagogik-psixologik aspektlari tahlil etilgan. A.Kamenskiy, O.Gavrilova, F.Shageyeva, L.Nikitina, T.Fadinalar tomonidan pedagogik ta’lim innovatsion klasteri ilmiy-nazariy asoslangan.

Xorijda K.Becker, W.Belmer, G.Boush, N.Felden, Heather Mason, J.John, N.Suhrweirr, S.Urwin, L.Zeuthen kabi olimlar tomonidan tiflopedagogik va tiflopsixologik yondashuvlar tadqiq etilgan bo‘lib, ularning natijasida korreksion-pedagogik ishlar samaradoriligini oshiruvchi tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ilmiy ishlar rejasining “Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi ko‘zi ojiz bolalarga savod o‘rgatish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga savod o‘rgatishning lingvodidaktik xususiyatlarini ochib berish;

ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga savod o‘rgatishning modelini takomillashtirish;

ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga savod o‘rgatish metodikasini takomillashtirish;

ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning o‘qish va braylda yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta‘minotini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirish jarayoni deb belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qashi shaharlari, Namangan va Jizzax viloyatlaridagi “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining jami 122 nafar ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilar jalb etildi.

Tadqiqot predmetini ko‘zi ojiz bolalarga savod o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakl, vosita, usul va mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ilmiy manbalar, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil etish, kuzatuv, so‘rovnomalar, kuzatuv, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga savod o‘rgatishning lingvodidaktik xususiyatlari vizual yetishmovchilikni kompensatsiya qilishda fonematik sintez topshiriqlaridan polisensor ta‘sir jarayonida hissiy sezgirlik impulsiga ko‘ra differensial foydalanish asosida aniqlashtirilgan;

ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga savod o‘rgatish modeli brayl tizimida yozishni o‘rgatuvchi tiflotexnik vositalardan foydalanish algoritmiga mayda qo‘l motorikasini faollashtirish, egiluvchanlikni oshirish mashqlarini ergonomik talablarda tiflografikli kiritish asosida takomillashtirilgan;

ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga savod o‘rgatish texnologiyalari ko‘zi ojiz bolalarda sensomotor ko‘nikmalarni individual diagnostika indikatorlariga ko‘ra rivojlantiruvchi mashqlarni bo‘rtirma makonda mo‘ljallanish harakatlari uyg‘unligida audiokinetik modifikatsiyalarda qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning o‘qish va braylda yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta‘minoti matematik tasavvur va idrokka asosida nuqtalar kombinatsiyasini kinestetik xis qildirish metodlaridan dars va korreksion mashg‘ulotlar integratsiyasi jarayonida audial algoritmlarda qo‘llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko‘rishida muammosi nuqsoni bo‘lgan bolalarga savod o‘rgatishning lingvodidaktik xususiyatlarini ochib beruvchi “Savod o‘rgatishning analiz-sintez tovush-harf metodi” nomli seminar dasturi ishlab chiqilgan;

o‘quvchilarga tiflotexnik vositalardan foydalanib brayl tizimida yozishni o‘rgatuvchi “Nurli maskan” o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan “Savodga o‘rgatish” darsligi nashr qilingan;

ko‘zi ojiz bolalarda sensomotor ko‘nikmalarni, matematik tasavvurlarni hamda fazoviy tushunchalarni rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodlari aks etgan “Matematika” nomli o‘quv darsligi ishlab chiqilgan va foydalanishga joriy etilgan;

ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalarning o‘qish va braylda yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishning tarixiy yondashuvlarini o‘rgatishga mo‘ljallangan “Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati” uslubiy qo‘llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullar, nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, tajriba-sinovga jalb etilgan maxsus ta‘lim muassasalari soni talab darajasida ekanligi, olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuni, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko‘zi ojiz o‘quvchilarga savod o‘rgatishning vizual yetishmovchilik bilan bog‘liq metodik algoritmi milliy va xorijiy metodik yondashuvlarning ilg‘or tendensiyalari asosida ishlab chiqilgani, fonematik sintez topshiriqlaridan polisensor ta‘sir jarayonida hissiy sezgirlik impulsiga ko‘ra differensial foydalanishning audiokinetik texnologiyalari takomillashtirilgani, ona tili darslari va korreksion mashg‘ulotlarning integratsiyasi asosida braylda yozish va o‘qishga o‘rgatishning lingvodidaktik ta‘minoti individual, differensial yondashuvlarga asoslangan holda adaptivlashtirilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati amaliyotga joriy etilgan lingvodidaktik va tiflotexnik yondashuvlardan soha yo‘nalishiga doir tadqiqotlarda, ta‘limni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlar, loyihalarda, maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislarining malakasini oshirish kurslari modullari mazmunini boyitishda, ixtisoslashtirilgan ta‘lim muhitida ko‘zi ojiz o‘quvchilarni fanlarni o‘zlashtirishga grammatik jihatdan tayyorlashga bag‘ishlangan ma‘ruzalar mazmunini to‘ldirishda nazariy-metodik, ota-onalar uchun konsultativ manba sifatida foydalanilishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko‘zi ojiz bolalarga savod o‘rgatish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida:

ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga savod o‘rgatishning lingvodidaktik xususiyatlari vizual yetishmovchilikni kompensatsiya qilishda fonematik sintez topshiriqlaridan polisensor ta‘sir jarayonida hissiy sezgirlik impulsiga ko‘ra differensial foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar “Savodga o‘rgatish” darsligi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2026-yil 13-fevraldagi 01/11-1-91-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ko‘zi ojiz bolalarga savod o‘rgatishning o‘zbek tili xususiyatlariga mos ishlab chiqilgan algoritmini o‘qituvchi-tiflopedagog, ota-onalar va talabalarga o‘rgatishning didaktik ta‘minotiga erishilgan;

ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga savod o‘rgatish modeli brayl tizimida yozishni o‘rgatuvchi tiflotexnik vositalardan foydalanish algoritmiga mayda qo‘l motorikasini faollashtirish, egiluvchanlikni oshirish mashqlarini ergonomik talablarda tiflografikli kiritishga doir tavsiyalar “Ijtimoiy-maishiy hayotga tayyorlash

metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-son buyrug‘i asosida tasdiqlangan 438365–raqamli guvohnoma). Natijada ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashning korreksion-kompensatsion yondashuvlarini qo‘llashni o‘rgatishga sharoit yaratilgan;

ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga savod o‘rgatish texnologiyalari ko‘zi ojiz bolalarda sensomotor ko‘nikmalarni individual diagnostika indikatorlariga ko‘ra rivojlantiruvchi mashqlarni bo‘rtirma makonda mo‘ljall olish harakatlari uyg‘unligida audiokinetik modifikatsiyalarda qo‘llashga oid takliflari “Tiflotexnika va tiflografika” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-son buyrug‘i asosida tasdiqlangan 438366–raqamli guvohnoma). Natijada ko‘zi ojiz bolalarning tiflotexnik vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullarini keng targ‘ib etish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola chop etilgan, ulardan 4 ta maqola respublika jurnallarida, 1 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 126 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“**Kirish**” qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining respublikaning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Ko‘zi ojiz bolalarga savod o‘rgatishning nazariy asoslari**” deb nomlanib, O‘zbekistonda ta‘lim tizimi, ko‘zi ojiz bolalar uchun “Nurli maskan” maktab-internatlari faoliyati, tiflopedagogikada bolalarga savod o‘rgatish bosqichlari, brayl yozuvi tarixi, olti nuqtali yozuvga tayyorgarlikning o‘ziga xos tizimi mohiyati yoritilgan. Ko‘zi ojiz bolalarga savod o‘rgatishning mazmuni va o‘ziga xos aspektlarini yoritish masalasi yozuv tarixi va sog‘lom insonlarga savod o‘rgatishning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish orqali hal etiladi. Chunki sog‘lom bolalarga savod o‘rgatish tizimi asosida ko‘zi ojiz bolalarga yozuvni o‘rgatish metodikasi mazmuni ishlab chiqiladi va ish shakllari tanlanadi.

Savod o'rgatish o'qish va yozishga o'rgatish jarayonidir. Uning asosida insonning dunyoqarashi shakllanishiga, nutq, tafakkur rivojlanishiga, pirovardida va ijtimoiylashuviga erishiladi. Chunki insoniyat tarixida yozuv xalqlarning madaniy merosini saqlashga va avloddan-avlodga o'tkazishga xizmat qilgan. Savod o'rgatish tarixi-qadimiy yozuvlardan tortib jadid maktablari va Gayui maktabigacha bo'lgan uzluksiz, boy jarayondir. Ayniqsa, ko'zi ojizlar uchun maxsus yozuv va ta'lim tizimining yaratilishi insonparvarlikning yuksak namunasi bo'lib, hozirgi Brayl tizimiga asos bo'lgan tarixiy hodisadir. Ma'lumki, XIX asr oxirlarida jadid maktablarida K.Ushinskiy joriy etgan "tovush tahlil-tarkib (analitik-sintetik)" usuli asosiy usul sifatida qo'llanildi. Ko'zi ojizlar ta'limi masalasi Yevropada XVIII asrda o'rganila boshlandi. Deni Didro ko'zi ojizlarning sezgi imkoniyatlarini chuqur tadqiq etdi, ularni hunarga o'rgatish mumkinligini ilmiy asoslab berdi.

I.Gasprinskiy o'zining "Rahbari muallimun" va "Xo'jayi sibyon" asarlari bilan tovush usulini nazariy jihatdan asoslab berdi. U alifboni bosqichma-bosqich o'rgatish, harfni to'g'ri talaffuz qilish, takrorlash orqali mustahkamlash kabi muhim qoidalarni ishlab chiqdi. Bu ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarga savod o'rgatish jarayonini tashkil etishning lingvodidaktik xususiyatlariga ham mosdir.

Ko'zi ojiz bolalarni savodga o'rgatish jarayoni maxsus pedagogik va psixologik yondashuvlarni talab qiladi. Chunki ko'rish imkoniyati cheklangan bolalar bilimni asosan eshitish, taktil idrok orqali qabul qilishadi. Shu sababli tiflopedagogika yo'nalishida ta'lim jarayoni Brayl yozuvi, tiflotexnika, ovozli dasturlar va maxsus darsliklardan foydalanishga asoslanadi. Psixologik jihatdan esa bolaning motivatsiyasi, o'ziga ishonchi va ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki savodga o'rgatish jarayoni nafaqat texnik ko'nikma, balki bolani mustaqil hayotga tayyorlaydigan kompleks pedagogik jarayon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ko'rish nuqsoni bilan tug'ilgan yoki keyinchalik ko'rish qobiliyatini yo'qotgan bolalar turlicha psixologik va pedagogik ehtiyojlarga ega bo'ladi. Ularning ko'rish o'tkirligiga qarab, odatda ikki guruh ajratiladi: **total ko'zi ojizlar** va **zaif ko'ruvchilar**.

Zaif ko'ruvchilarda ko'rish o'tkirligi odatda 0,05–0,4 oralig'ida bo'lib, ular ta'lim jarayonida yirik shriftli, kontrastli va yorqin materiallardan foydalanish orqali o'qitiladi. Total ko'zi ojizlar esa asosan Brayl yozuvi yordamida savod chiqaradi. Shu bois har ikki toifadagi o'quvchilar uchun darsliklar, daftarlar va o'quv qurollari maxsus moslashtirilgan bo'lishi, ta'lim jarayoni esa ularning sensor imkoniyatlari va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur. Chunki, ko'zi ojiz bolalarda ko'rish nuqsoni tufayli bilish faoliyati sekinlashishi, fazoda mo'ljal olishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Tiflopedagogik va korreksion ta'lim orqali bu orqada qolish barqaror kamayadi. Maktabgacha tarbiya olmagan yoki maxsus tayyorgarliksiz maktabga kelgan bolalarda holatlar yanada yaqqol ko'rinadi. Shu bois bu toifadagi bolalar tayyorlov sinflarida o'qitilishi muhim ahamiyatga ega.

Savodga o'rgatish jarayonidan oldin ko'zi ojiz o'quvchilar bilan propedevtik tayyorgarlik davrini tashkil etish muhim hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilarga atrof-muhit, maktab ichidagi joylashuv, maxsus xonalar hamda turli predmetlarning o'rni amaliy mashqlar orqali o'rgatiladi. Shu bilan birga

ular da fazoviy tushunchalar va tasavvurlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki Brayl yozuvini muvaffaqiyatli o'rganish o'quvchilarda to'g'ri fazoviy orientatsiya, o'ng va chap tomonni farqlay olish, eshitish, hid bilish hamda ayniqsa taktil sezgilar – qo'l barmoqlari sezgisining yetarli darajada rivojlangan bo'lishini talab qiladi. Ranglar, geometrik shakllar, katta-kichiklik, baland-past kabi elementar tushunchalar ham aynan amaliy-taktil mashqlar orqali bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Shu sababli ko'zi ojiz bolalarni savodga o'rgatish jarayoni ularning sensor rivojlanishi, fazoviy tasavvuri, mustaqil harakatlanish ko'nikmalari va psixologik tayyorgarligiga tayanuvchi murakkab pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Bunda o'quvchilarning atrof-muhitni sezgi organlari orqali idrok etish imkoniyatlarini rivojlantirish, ularni mustaqil faoliyatga tayyorlash va o'qish-yozish jarayoniga bosqichma-bosqich jalb etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Savodga o'rgatish jarayonini samarali tashkil etishda maxsus didaktik vositalar va tiflotexnika muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlabki davrlarda bunday vositalarning eng sodda ko'rinishi yog'och taxtalarga o'yib ishlangan harflar bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ta'lim jarayonida ancha takomillashgan vositalar qo'llanilmoqda. Jumladan, Brayl pribori, grifel, kolodka, bo'rtma chizg'ichlar, geometrik moslamalar, ovozli kalkulyatorlar va audio kitoblar shular jumlasidandir. Masalan, Brayl pribori nuqtalar bosiladigan maxsus temir moslama bo'lsa, grifel qog'ozni teshib nuqtalarni hosil qiluvchi yozuv asbobi hisoblanadi. Kolodka esa boshlang'ich bosqichda o'rganayotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan yirik nuqtali taxtacha bo'lib, u bolalarga nuqtalarning joylashuvini tez va aniq o'zlashtirishga yordam beradi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tiflotexnika jadal rivojlandi. Brayl yozuv mashinalari-Perkins Brailler, Stainsby mashinkasi, Mountbatten Brailleri va so'nggi SMART Brailler qurilmalari matnni oson yozish, xatolarni tekshirish, ovozli yordam bilan o'qish imkonini beradi. NVDA, JAWS va TalkBack kabi ovozli kompyuter dasturlari esa ko'zi ojiz bolalarga mustaqil ravishda dars tayyorlash, internetdan foydalanish va matnni tinglash imkonini yaratmoqda.

Demak, Brayl tizimi va tiflotexnika vositalarining uzluksiz takomillashuvi ko'zi ojiz o'quvchilarning ta'lim jarayonini yanada yengillashtiradi deb hisoblash mumkin. Brayl yozuvi ko'zi ojiz shaxslar uchun mo'ljallangan maxsus yozuv tizimi bo'lib, u qog'ozning orqa tomonidan bo'rttirib chiqarilgan nuqtalar kombinatsiyasi orqali hosil qilinadi.

O'qish jarayonida matn chapdan o'ngga qarab barmoq uchlari yordamida sezib o'qiladi. Shu sababli Brayl yozuvida o'qish va yozishni o'rganishda qo'l barmoqlarining sezgirligi, to'g'ri o'tirish holati hamda qo'lni matn ustida to'g'ri joylashtirish muhim pedagogik talablar hisoblanadi. Mazkur tizim o'zining qulayligi va universalligi sababli bugungi kunda butun dunyoda ko'zi ojiz shaxslar savodxonligini ta'minlovchi yagona standart yozuv tizimi sifatida tan olingan.

Ko'zi ojiz bolalarni savodga o'rgatish jarayoni maxsus yondashuv va tizimli tayyorgarlikni talab qiladi. Bu jarayonning asosi Brayl tizimi, maxsus o'quv-uslubiy materiallar, malakali pedagoglar va individual yondashuvdan iboratdir.

To'g'ri tashkil etilgan savodxonlik jarayoni mustaqil fikrlash, ijtimoiylashuv va hayotga faol moslashuvini ta'minlaydi. Nazariy manbalar va amaliyotdagi tajribalarni tahlil qilish natijasida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatishning maxsus metodik tizimini ishlab chiqish zarur degan xulosaga kelindi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ko'zi ojiz bolalarga savod o'rgatishning metodik tizimi”** deb nomlangan bo'lib, ko'zi ojiz bolalarning teri tuyishini va mayda qo'l motorikasini va matematik-integrallashuv tasavvurini rivojlantirish usullari, bo'rtma nuqtalar vositasida savod o'rgatish metodlari yoritilgan.

Tadqiqot doirasida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'pincha qo'l mushaklarining sustligi yoki tarangligi, mayda motorikasini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus korreksion mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqildi. Mashg'ulotlarning maqsadi-bolalarning qo'l-barmoq sezgilari va harakatlarini rivojlantirish, buyumlarning shakli, hajmi va xususiyatlarini tuyib idrok qilishga o'rgatish, shuningdek, yozuv va o'qishga tayyorlashdir. Asoslovchi tajriba-sinov ishlarining natijasida barmoq gimnastikasi, kichik predmetlar bilan mashqlar, mozaika, testoplastika (xamir bilan ishlash), qalam mashqlari, qaychi bilan ishlash, ip va qog'oz bilan ishlash, taktil o'yinlar (“xazina qidirish”, relyefli chiziqlar bo'yicha mashqlar, quvnoq mixchalar, kubik-rubik, so'zni top hamda kattadan kichikka tomon metodikasi) kabi metodlar samarali ekani ko'rsatib berildi. Shuningdek, mazkur korreksion mashg'ulotlar muntazam o'tkazilganda bolalarda Brayl yozuvini tez va to'g'ri o'qish malakasi, qo'l harakatlari egiluvchanligi, koordinatsiyasi va yozuv ko'nikmalari shakllanishi kuzatildi.

Bo'rtma nuqtali yozuv-ko'zi ojiz bolalarga savod o'rgatishda asosiy vosita sifatida qo'llanilib, tadqiqotda Brayl yozuvining didaktik ahamiyati, uning bolalar psixofiziologik imkoniyatlariga mosligi va o'qitish samaradorligi asoslab berilgan. Quyidagi ustuvor vazifalarni bajarish asosida savodga o'rgatish jarayonini olib borildi - o'qish va yozish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish; taktil sezgirlikni rivojlantiruvchi maxsus mashqlarni qo'llash; qo'l barmoqlarining motorikasini kuchaytirish orqali tezkor va aniq idrokni shakllantirish.

Ko'zi ojiz bolalarda Brayl yozuvini o'rgatish jarayoni ularning taktil sezgisini rivojlantirishga asoslanadi. Bu jarayonda eng muhim tiflotexnik vositalardan biri kolodka bo'lib, u harflarni tashkil etuvchi 6 nuqtaning kattalashtirilgan maketi hisoblanadi. 6-7 yoshli o'quvchilarda barmoq sezgilari hali to'liq rivojlanmaganligi sababli, kolodkadagi yirik nuqtalar ularning o'rni va joylashuvini yengil his qilishga yordam beradi.

Kolodka yordamida avval o'ng tomondagi (1-2-3) nuqtalar, keyin chap tomondagi (4-5-6) nuqtalar o'rgatiladi. Bola nuqtalar joylashuvi, ularning qarama-qarshi ko'rinishlarini (1-4, 2-5, 3-6) to'g'ri ajrata olgach, kolodkadan foydalanish davom ettirilmaydi, chunki u faqat yozish tartibini o'rgatish uchun xizmat qiladi.

Dastlabki 4-5 haftalik mashg'ulotlardan so'ng o'quvchi asosiy yozuv vositasi-pribor va grifel bilan yozishga o'tadi. Priborda kataklar kolodkaga nisbatan ancha kichik bo'lgani uchun o'quvchilar u bilan tanishishda alohida

mashqlar bajaradilar: yuqori, oʻrta va pastki qatorlarni barmoqlar bilan his qilish, grifelni toʻgʻri ushlab, kataklarni izlab topish va nazorat qilish taʼkidlanadi.

Yozish jarayonida oʻng qoʻl grifel bilan ishlaydi, chap qoʻl esa kataklarni oldindan topib turadi. Bu harakat ikki qoʻl muvofiqligini rivojlantiradi va belgilarni aniq hosil qilishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, bola gavda, bosh va yelkani tik tutishiga qatʼiy rioya qilishi lozim, aks holda umurtqa qiyshiqligi yuzaga kelishi mumkin.

Brayl tizimi oʻziga xos: yozish oʻngdan chapga, oʻqish esa chapdan oʻngga amalga oshiriladi. Shu bois oʻquvchilarda nuqtalar oʻrnini yodlab qolish, teskari aksni toʻgʻri anglash va nuqtalarni almashtirib yubormaslik koʻnikmasini shakllantirishning muhimligi va bu borada koʻp uchraydigan xatolar va ularni bartaraf etish yoʻllari koʻrsatib oʻtilgan: kerakli nuqtani yozmaslik (nuqta tushsa, soʻz maʼnosi oʻzgaradi-masalan tom→som); ortiqcha nuqtani bosish (ot→och), nuqtalar oʻrnini almashtirish (bola→kola; xatolarni bartaraf etish uchun oʻquvchiga nuqtalarni eshitish orqali (grifel bosilishi ovozidan) tekshirish; boʻrtma yozuvni barmoqlari bilan oʻqib qayta tahlil qilish tavsiya etiladi.


“Savodga oʻrgatish” darsligida mevalar, hayvonlar, texnika, musiqa asboblari, uy-roʻzgʻor buyumlari kabi 160 dan ortiq predmetlar nomi oʻrgatiladi. Ularning maketlarini qoʻl bilan ushlab koʻrish koʻzi ojiz bolalarda **predmet tasavvurini shakllantirishga** katta yordam berilishi taʼkidlab oʻtilgan.

Bugungi kunda yurtimizdagi barcha “Nurli Maskan” maktab internatlarida koʻzi ojiz va zaif koʻruvchilar birga oʻqiyotgani sababli, darsliklarda Brayl yozuvi bilan birga harflarning yassi yozuvdagi koʻrinishi ham berilgan boʻlib, bu ular uchun kelajakda imzo qoʻyish, hujjatlarni toʻldirish kabi ishlarni bajarishda qulaylik yaratishi alohida qayd etilgan.

Shu bilan bir qatorda koʻzi ojiz bolalarni savodga oʻrgatish jarayonida matematik-integrallashuv elementlarini qoʻllashning samarali natija berishi, tovush, harf, boʻgʻin, soʻz va tinish belgilarini oʻrgatish bilan bir qatorda, oʻquvchilarda son, shakl va fazoviy tasavvurlarni shakllantirishga alohida eʼtibor qaratilishi taʼkidlangan: harflar va raqamlarning boʻrtma nuqtalar tizimidagi oʻxshashliklarini taqqoslab oʻrgatish; geometrik shakllar orqali nuqtalar joylashuvini tushuntirish (masalan, kvadrat yoki uchburchak orqali harf va raqamlarni yodlash); rang va fazoviy tushunchalarni ogʻzaki nutq orqali izohlash, ularni yozma va ogʻzaki nutqda qoʻllashga oʻrgatish; oʻng, chap, yuqori, past kabi fazoviy tushunchalarni mustahkamlash.

Oʻtkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni koʻrsatdiki, matematik-integrallashuv asosida savod oʻrgatilgan bolalarda xotira, tafakkur va idrok jarayonlari tezroq rivojlanadi. Shuningdek, raqam va matematik amallarni brayl yozuvida toʻgʻri qoʻllash, belgilarni farqlash, taqqoslash va oddiy arifmetik amallarni bajarishda sezilarli ijobiy oʻsish kuzatildi.

Matematik integrallashuvni savod oʻrgatish jarayoniga singdirish koʻzi ojiz oʻquvchilarning nafaqat savodxonligini, balki matematik tasavvur va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu metodik yondashuv oʻqitish samaradorligini oshiradi va bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuviga yordam beradi. Taklif etilgan metodik tizim modelda aks ettirildi (1-rasm).



1-rasm. Ko'zi ojiz bolalarga savod o'rgatishning metodik modeli

Tadqiqotimiz davomida “Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga savod o‘rgatishning modeli” brayl tizimida yozishni o‘rgatuvchi tiflotexnik vositalardan foydalanish algoritmiga mayda qo‘l motorikasini faollashtirish, egiluvchanlikni oshirish mashqlarini ergonomik talablarda tiflografikli kiritish asosida takomillashtirildi. Yuqorida keltirilgan ko‘zi ojiz o‘quvchilarda mayda qo‘l motorikasini faollashtirishga yo‘naltirilgan metodikalar va dissertatsiyaning keyingi qismlarida yoritilgan kolodka, pribor va grifel kabi tiflotexnik va tiflografik vositalardan foydalanish usullari biz tomondan joriy etilgan modelning jarayonli bloki mazmunida aks ettirilgan.

Ko‘zi ojiz bolalarga savod o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlarini ta‘minlaydigan metodologik tamoyillarga asoslanib, model komponentlari o‘quv jarayoni va yakuniy natijaning prognoziga ko‘ra belgilandi. Modelning rivojlantiruvchi maqsadi ko‘zi ojiz bolalarga savod o‘rgatish metodikasini takomillashtirish hamda ularda pribor va grifeldan to‘g‘ri foydalanish, tovush va harflarni farqlash va brayl yozuvida ifodalash, kolodkada mo‘ljol olib, brayl yozuv elementlarini hosil qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Metodik tizimda teri tuyish (taktil sezgi) va mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish orqali Brayl savodxonligini shakllantirishga qodir o‘zaro bog‘liq to‘rtta blok: maqsadli, mazmunli, jarayonli va natijaviy blokdan iborat.

Maqsadli blok modelning strategik yo‘nalishini belgilaydi. ko‘zi ojiz bolalarga savod o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini aniqlash orqali ko‘zlangan maqsadga erishildi. Bundan tashqari savod o‘rgatish mashg‘ulotlarini metmatika darslari bilan integratsiyasini ta‘minlash o‘quvchilarning savod o‘rganishida muhim shartlardan hisoblandi.

Mazmunli blok ta‘limning ichki tarkibini belgilaydi. Bunda biz tomondan nashr qilingan “Alifbe” darsligi o‘quvchilarga savod o‘rgatishning tayanch kontenti sanaldi. Bunda umumta‘lim maktablari uchun chiqarilgan “Alifbe” darsligida berilgan ketma-ketlikda tovush-xarflar tizimli ravishda berilgan bo‘lib, bo‘rtma vositalar orqali 6 nuqtali kombinatsiya o‘rgatilishi amalga oshirildi. O‘quvchilarning eshituv idroki ustuvorligida mayda qo‘l motorikalari egiluvchanligi hamda barmoq uchi sezuvchanligini oshirishga qaratilgan ish usullari joriy etildi.

